

**REGIONAL DISTRIBUTION OF INDIVIDUAL ENTREPRENEURS IN THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON ECONOMIC
DEVELOPMENT****Maksimova Umidakhon Dildarovna**Specialist of the Marketing and Contracts Department
“University of Economics and Pedagogy” NTM

Abstract. This article analyzes the regional distribution of individual entrepreneurs across the regions of the Republic of Uzbekistan and examines its impact on economic development. The study highlights the economic and social factors that shape regional disparities and discusses the contribution of individual entrepreneurs to job creation, market development, and the activation of local economic activity. The article provides recommendations aimed at supporting economic growth through the development of regional entrepreneurship.

Keywords: individual entrepreneurs, regional distribution, economic development, entrepreneurship, regional disparities, local economy.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR
FAOLLIGINING HUDUDIIY TAQSIMOTI VA IQTISODIIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI****Maksimova Umidaxon Dildarovna**“University of Economics and Pedagogy” NOTM
Marketing va shartnomalar bo‘limi mutaxassisi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston hududlarida yakka tartibdagi tadbirkorlar faolligining hududiy taqsimoti va uning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada hududiy farqlarni shakllantiruvchi iqtisodiy va ijtimoiy omillar yoritiladi hamda YTTlarning ish o‘rinlari yaratish, bozorni rivojlantirish va mahalliy iqtisodiy faollikka qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritadi. Maqola hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: yakka tartibdagi tadbirkorlar, hududiy taqsimot, iqtisodiy rivojlanish, tadbirkorlik, hududiy farqlar, mahalliy iqtisodiyot.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikdan buyon bozor iqtisodiyoti yo‘nalishida keng ko‘lamli islohotlar olib bormoqda. Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri kichik va o‘rta tadbirkorlikni, xususan yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT) va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashdir. YTTlar nafaqat ichki bozorning xizmat va tovarlar segmentini to‘ldiradi, balki bandlikni oshirish, aholi daromadlarini mustahkamlash hamda iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishda muhim rol o‘taydi.

So‘nggi yillarda davlat tomonidan qabul qilingan bir qator hujjatlar tadbirkorlik faoliyatini soddalashtirish va qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning oxirgi yillarda qabul qilayotgan qararlari tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha muhim tashabbuslar paketini tasdiqladi, unda o‘zini o‘zi band bo‘lgan shaxslar uchun davlat boji bekor qilindi va ular yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tishda to‘lovlarsiz ishlash imkoniyati yaratildi. Bu qaror kichik va o‘rta biznes sub’yektlarini rasmiylashtirishni rag‘batlantirishga qaratilgan edi. Jumladan, 2025-yil 12-avgustdagi PQ-247-son Prezident farmoni “Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori qabul qilindi [1]. Ushbu

hujjat bilan maxsus huquqiy rejim joriy etilib, u 2030-yil 31-dekabrgacha amalda bo'lishi belgilangan. Qaror asosida davlat xizmatlarini onlayn tarzda olish, raqamli platformalar orqali ro'yxatdan o'tish, soliq hisobotini topshirish va naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish tartiblari joriy etiladi. Bu hujjatlarda belgilangan chora-tadbirlar ichida eng muhim yo'nalishlardan biri tadbirkor va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun yagona raqamli xizmatlar platformasini yaratish bo'lib, u orqali bank hisob raqamini ochish, soliq hisobchiligi va fiskal cheklarni shakllantirish kabi xizmatlar birlashtiriladi. Bu esa boshlang'ich biznes sub'yektlari uchun ma'muriy yukni sezilarli darajada kamaytiradi va ish yuritishni soddalashtiradi. Bundan tashqari, 2026-yil 1-yanvardan boshlab YTTlar va o'zini o'zi band qilganlar uchun aylanmadan olinadigan soliq 1 % darajasida belgilanishi ma'qullangan, bu esa kichik biznes sub'yektlari uchun soliq yukini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, QR-kod orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi joriy etilib, elektron hamyonlar orqali daromadlarni qabul qilish imkoniyati ham beriladi.

Hududiy jihatdan YTTlarning faoliyati O'zbekistonning barcha viloyat va shaharlarida turlicha namoyon bo'ladi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga mamlakat bo'ylab faoliyat yuritayotgan YTTlar soni 284 440 taga yetgan. Jumladan, eng ko'p YTTlar Toshkent shahrida ro'yxatga olingan bo'lsa, Samarqand va Farg'ona viloyatlari ham ushbu ko'rsatkich bo'yicha yuqori o'rinlarda turadi. Hududiy farqlarning mavjudligi iqtisodiy imkoniyatlar, aholi zichligi, infratuzilma va bozor talabi bilan bog'liq. Toshkent shahri milliy biznes va xizmat ko'rsatish markazi bo'lgani uchun tadbirkorlar uchun ko'proq imkoniyatlar mavjud, bu esa YTTlar sonining yuqori bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga viloyatlar bo'yicha farqlar ham mavjud ayrim hududlarda infratuzilma va transport aloqalari rivojlanmaganligi, bozor talabi past bo'lishi YTTlar soniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, Qashqadaryo, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida YTTlar soni boshqa hududlar bilan solishtirganda nisbatan past. Bu hududiy tafovutlar iqtisodiy taraqqiyotning turlicha kechishidan darak beradi hamda davlat siyosati uchun muhim tahliliy ma'lumotlarni taqdim etadi.

YTTlar iqtisodiyot uchun nafaqat xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha, balki ish o'rinlari yaratish, soliq tushumlarini oshirish va mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qiladi. YTTlar orqali rasmiylashtirilgan bandlik darajasi oshadi, shu bilan bog'liq ijtimoiy muammolar kamayadi va aholi daromadlari mustahkamlanadi. Raqamli platformalar, soliq imtiyozlari va yagona raqamli xizmatlar tadbirkorlikni rag'batlantirish, biznesni qonuniylashtirish va raqamlashtirish yo'lida muhim ahamiyatga ega. Shu bois, mazkur maqola O'zbekiston hududlaridagi YTTlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini batafsil tahlil qiladi, ularning hududiy taqsimoti va davlat siyosati orqali yaratilgan qulayliklar iqtisodiyot rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Xususan, hududlararo tafovutlar, YTTlarning soliqqa tortilishi, raqamli xizmatlar va soliq imtiyozlarining tadbirkorlik faolligiga ta'siri hamda bu sohani yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar maqola davomida yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

O'zbekiston sharoitida kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlar asosan tadbirkorlikning bandlikni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish hamda hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirishdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Mahalliy iqtisodchi olim Abdulaziz Abduhakimov o'zining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari" nomli ilmiy asarida kichik biznes sub'yektlari, jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlarning iqtisodiyotdagi o'rnini tizimli ravishda tahlil qilgan [2]. Muallif tadqiqotlarida YTTlar hududiy bandlikni ta'minlashning eng samarali shakllaridan biri ekanligi asoslab berilgan. Unga ko'ra, yakka tartibdagi tadbirkorlik aholining o'zini o'zi band qilishi orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash bilan birga, aholi daromadlarini oshirishda muhim iqtisodiy sub'yekt sifatida namoyon bo'ladi. A.Abduhakimov o'z izlanishlarida hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy o'sishga xizmat qilishini ta'kidlab, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining

muhimligini alohida qayd etadi. Shuningdek, iqtisodchi olim Qodirjon Yo‘ldoshevning “O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari” nomli ilmiy tadqiqoti ham mazkur mavzu doirasida muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif o‘z izlanishlarida hududlar kesimida tadbirkorlik faolligi va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, iqtisodiy infratuzilma rivojlangan, bozor imkoniyatlari keng hududlarda tadbirkorlik faolligi yuqori bo‘lib, bu holat hududiy iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Q.Yo‘ldoshev YTTlarni hududiy iqtisodiy faollikning asosiy manbalaridan biri sifatida baholab, ularning faoliyati hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda muhim omil ekanligini ta‘kidlaydi [3]. Bundan tashqari, iqtisodchi olim Saidrasul G‘ulomovning “Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish” nomli ilmiy asarida tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati chuqur tahlil qilingan [4]. Muallif tadqiqotlarida yakka tartibdagi tadbirkorlik aholining o‘zini o‘zi band qilishi, norasmiy bandlikni qisqartirish va rasmiy iqtisodiyot ulushini oshirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida baholanadi. G‘ulomov YTTlarning iqtisodiy ahamiyati bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy funksiyalariga ham e‘tibor qaratib, tadbirkorlik faolligining oshishi aholi farovonligini yaxshilashga xizmat qilishini asoslab beradi.

Mazkur ilmiy izlanishlar bilan bir qatorda, davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ham mavzuga oid adabiyotlar tahlilida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlarida yakka tartibdagi tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ro‘yxatdan o‘tish tartiblarini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish hamda raqamli xizmatlarni joriy etish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu hujjatlar YTTlar sonining o‘sishi va ularning hududiy faolligining oshishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi tomonidan e‘lon qilinayotgan rasmiy statistik ma‘lumotlar yakka tartibdagi tadbirkorlikning hududiy taqsimotini tahlil qilishda asosiy empirik manba hisoblanadi. Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida YTTlar sonining hududlar kesimidagi farqlari, iqtisodiy faollik darajasi va hududiy rivojlanish bilan bog‘liqligi aniqlanadi. Ushbu statistik ma‘lumotlar ilmiy tadqiqotlarda nazariy xulosalarni amaliy raqamlar bilan asoslash imkonini beradi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda rasmiy statistika manbalari yakka tartibdagi tadbirkorlar iqtisodiy rivojlanishning muhim subyekti ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili YTTlarning hududiy taqsimoti va iqtisodiy rivojlanishga ta‘sirini kompleks yondashuv asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy yo‘nalishni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining hududiy taqsimoti va uning iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida o‘rganildi. Maqolaning metodologik asosi sifatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga oid nazariy qarashlar hamda hududiy iqtisodiyot konsepsiyalari qabul qilindi.

Izlanish jarayonida ilmiy bilishning tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash kabi umumiy usullaridan foydalanildi. Hududlar kesimida yakka tartibdagi tadbirkorlar soni, ularning bandlik va aholi daromadlariga ta‘sirini aniqlashda iqtisodiy-statistik usullar, xususan dinamik qatorlar va strukturaviy tahlil qo‘llanildi. Guruhlash usuli yordamida hududlar tadbirkorlik faolligi darajasiga ko‘ra tasniflandi.

Izlanish jarayonida yakka tartibdagi tadbirkorlar soni bilan hududiy iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash maqsadida korrelyatsion tahlil elementlaridan foydalanildi. Axborot manbalari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining rasmiy ma‘lumotlari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va Prezident farmonlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yakka tartibdagi tadbirkorlik iqtisodiy faollikni oshirish, aholining bandligini ta‘minlash va hududiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim omil sifatida

namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, hududlar kesimida yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining tahlili ularning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Shu bois, mazkur bo'limda O'zbekiston Respublikasida yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining hududiy taqsimoti rasmiy statistik ma'lumotlar asosida o'rganilib, mavjud hududiy tafovutlar hamda ularning iqtisodiy mazmuni tahlil qilinadi (1-jadval).

Hududlar kesimida YATTLar soni

1-jadval

Hudud nomi	YTTlar soni (ta)
Toshkent shahri	41 093
Samarqand viloyati	29 792
Farg'ona viloyati	27 186
Andijon viloyati	26 233
Toshkent viloyati	26 060
Qashqadaryo viloyati	23 327
Namangan viloyati	19 908
Buxoro viloyati	17 401
Qoraqalpog'iston Respublikasi	17 090
Surxondaryo viloyati	16 710
Xorazm viloyati	14 198
Jizzax viloyati	9 767
Sirdaryo viloyati	8 025
Navoiy viloyati	7 650
Jami	284 440

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasida yakka tartibdagi tadbirkorlar hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganini yaqqol ko'rsatadi. Eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahriga to'g'ri kelib, bu holat poytaxtning iqtisodiy salohiyati, aholining to'lov qobiliyati, bozor infratuzilmasining rivojlanganligi hamda xizmatlar sohasining kengligi bilan izohlanadi. Toshkent shahrida YTTlar asosan savdo, umumiy ovqatlanish, transport va maishiy xizmatlar yo'nalishlarida faoliyat yuritib, shahar iqtisodiy faolligining muhim harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ikkinchi va uchinchi o'rinlarni Samarqand hamda Farg'ona viloyatlari egallab turibdi. Ushbu hududlarda aholining zich joylashganligi, tarixan savdo va hunarmandchilik rivojlanganligi, shuningdek ichki turizm salohiyatining yuqoriligi yakka tartibdagi tadbirkorlikning keng tarqalishiga zamin yaratmoqda. Bu hududlarda YTTlar nafaqat bandlikni ta'minlash, balki mahalliy bozorlarni tovar va xizmatlar bilan to'ldirishda ham muhim rol o'ynamoqda.

Andijon va Toshkent viloyatlarida ham yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining yuqoriligi kuzatiladi. Andijon viloyatida kichik ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish faoliyatining kengligi, Toshkent viloyatida esa poytaxtga yaqinlik omili YTTlar faolligini oshiruvchi asosiy sabablar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu hududlarda tadbirkorlik aholining daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida o'rta darajadagi ko'rsatkichlar qayd etilgan. Ushbu hududlarda qishloq xo'jaligi bilan bog'liq faoliyat turlari ustun bo'lib, yakka tartibdagi tadbirkorlik ko'proq qayta ishlash, chakana savdo va xizmatlar sohasi orqali rivojlanmoqda. Bu esa YTTlarning hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Buxoro, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatlarida YTTlar soni nisbatan pastroq bo'lsa-da, ular hududiy bandlikni saqlab turishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa chekka va kam rivojlangan hududlarda yakka tartibdagi tadbirkorlik aholini o'zini o'zi band qilishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Eng past ko'rsatkichlar Jizzax, Sirdaryo va Navoiy viloyatlariga to'g'ri keladi. Bu holat sanoat

yo‘nalishining ustunligi, aholining nisbatan kamligi hamda tadbirkorlik infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ushbu hududlar YTTlarni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega bo‘lib, qo‘shimcha institutsional va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari talab etiladi.

Umuman olganda, jadval tahlili yakka tartibdagi tadbirkorlar iqtisodiy faollikning hududiy nomutanosibligini kamaytirishda muhim instrument ekanini ko‘rsatadi. YTTlar bandlikni oshirish, aholi daromadlarini barqarorlashtirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT) iqtisodiy rivojlanishning muhim subyekti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Hududlar kesimida ularning soni va faolligi notekis taqsimlangan bo‘lsa-da, barcha hududlarda YTTlar bandlikni ta‘minlash, aholi daromadlarini oshirish va mahalliy bozorlarda xizmatlar va tovarlarni yetkazib berish kabi iqtisodiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajaradi. Toshkent shahri, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari kabi iqtisodiy salohiyati yuqori hududlarda YTTlar ko‘p bo‘lib, ular hududiy iqtisodiy faollikning muhim dvigateli hisoblanadi. Shu bilan birga, kam rivojlangan hududlarda YTTlar aholining o‘zini o‘zi band qilishi va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashdagi vosita sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Olingan tahlil va natijalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari surish mumkin:

1. Hududiy rag‘batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish har bir hududning iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda YTTlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish zarur. Masalan, ishlab chiqarish salohiyati yuqori hududlarda yangi xizmat va mahsulot yo‘nalishlarini rivojlantirish, qishloq va kam rivojlangan hududlarda esa mikroloans va grantlar orqali tadbirkorlikni rag‘batlantirish tavsiya etiladi.

2. Soliq va moliyaviy imtiyozlarni kengaytirish past iqtisodiy faollikka ega hududlarda YTTlar uchun soliq yengilliklari, mikrokreditlar va subsidiyalarni oshirish orqali iqtisodiy faollikni ko‘paytirish mumkin. Shu bilan birga, YTTlar uchun bank xizmatlari va elektron to‘lov tizimlarini soddalashtirish, raqamli moliyaviy xizmatlarga kirishni osonlashtirish zarur.

3. Huquqiy va moliyaviy savodxonlikni oshirish hududlarda tadbirkorlar uchun maxsus treninglar, seminarlar va onlayn kurslar tashkil etish, shuningdek, biznes-reja tayyorlash, soliq hisobi va kredit resurslaridan foydalanish bo‘yicha maslahat tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Bu YTTlarning barqaror faoliyat yuritishi va o‘sish salohiyatini oshiradi.

4. Hududlararo tajriba almashinuvi va innovatsiyalarni joriy etish yuqori faollikdagi hududlardagi muvaffaqiyatli tajribalarni kam rivojlangan hududlarga tatbiq etish, innovatsion texnologiyalar va xizmat ko‘rsatish standartlarini kengaytirish orqali YTTlar samaradorligini oshirish mumkin.

5. Raqamli tizimlarni keng qo‘llash YTTlar faoliyatini elektron ro‘yxatga olish, moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish va onlayn marketing vositalaridan foydalanishni rag‘batlantirish orqali biznes jarayonlarini tezlashtirish va shaffoflikni oshirish muhimdir.

Umuman olganda, ushbu chora-tadbirlar yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish, hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 12.08.2025 yildagi PQ-247-son.
2. A.Abduhakimov, Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti- 2020.
3. Q.Yo‘ldoshev, O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari. Toshkent: Fan va texnika nashriyoti- 2021.

4. S.G'ulomov, Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish. Toshkent: Iqtisodiyot va menejment nashriyoti -2019.
5. M.R. Boltaboyev. Kichik biznes va tadbirkorlik: (oliy o'quv yurtlarining barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma) /; O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Noshir, 2011. - 280 b.
6. E.Egamberdiev, X.Xo'jaqulov. "Kichik biznes va tadbirkorlik" O'quv qo'llanmasi. Toshkent Moliya instituti. Toshkent 2003 y. 175 bet.
7. Hamroyev, Halim Rajabovich. Tadbirkorlik asoslari: kasb ta'limi (iqtisodiyot) yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'l. H. R. Hamroyev; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Yangi nashr, 2010. - 360 b.
8. Tojiyeva, M.M. KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MAMLAKAT IJTIMOY-IQTISODIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. 9. 126-13-b. 2023-y.
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari - www.stat.uz
10. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, farmonlari, qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni to'liq va rasmiy shaklda e'lon qiluvchi veb-sayt – www.lex.uz